

MAHALLALARDA OMMAVIY SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA YO'LGA QO'YISH

O'zbekiston Respublikasi IIV Sirdaryo akademik litseyi jismoniy tarbiya o'qituvchisi
Ashurov A'zamjon Aripovich

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mahallalarda ommaviy sportning ahamiyati, uning o'rni hamda uni rivojlantirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Sport, jismoniy tarbiya, zamonaviy sport, aholi, yoshlar, sport musobaqasi, salomatlik, turmush tarzi.*

Bugungi kunda zamonaviy sport amaliyotida raqamlashtirilgan innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, aholi o'rtasida ommaviy sportni targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan aholini muntazam shug'ullanish darajasini kengaytirish, bu orqali salomatligini mustahkamlash hamda ularni o'rtacha umr ko'rish yoshini oshirib borish asosiy vazifalarimizdan biridir. Mazkur muammolarni o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish sohadagi muammolarning ilmiy yechimini aniqlashda dolzarb hisoblanadi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, va ma'naviy-ma'rifiy islohatlar ta'limtarbiya va sport-sog'lomlashtirish ishlarini ham mutlaqo yangicha mazmun, shakl va vositalarda tashkil etish, ular uchun yaratilgan mislsiz imkoniyatlardan yanada to'laroq foydalanib, o'sib kelayotgan yoshlarimizni Vatanga munosib farzandlar qilib tarbiyalashdek, o'ta muhim vazifalarni hal qilishga undaydi. Respublikamiz hukumati tomonidan o'quvchi-yoshlarni jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni sport-sog'lomlashtirish ishlariga keng jalb qilish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish, sog'lom turmush tarziga yo'naltirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy tarbiya va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi.

Insonning sog'lom bo'lishi - bu nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki xam jismoniy xam ruxan rivojlangan xolati hisoblanadi. Ammo ushbu fikrimizga qo'shiluvchi odamlar soni kamroq. Bugungi kunda yoshlarni sog'lom va manan barkamol etib tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish eng muxim masalalardan biri xisoblanadi. Yosh avlodning salomatligi biz uchun neg muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Lekin Inson hayotining bu, qimmatli, ajralmas qismiga juda kam odam e'tibor beradi. Ijtimoiy muhitning salbiy ta'siriga eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan yoshlar kontingent hisoblanadi, chunki uning vakillari jismoniy jihatdan to'liq shakllanmagan shaxslardir. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarga muntazam ravishta jismoniy tarbiya va sport bilan shug'illanishlari uchun, shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu darslarni tashkil etishda jiddiy qiyinchiliklar jismoniy tarbiya uchun samarali va arzon vositalarni tanlash bilan bog'liq. Bugungi kunda har bir inson xoxlagan sport turi bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin biror bir sport turini tanlashdan oldin, shug'illanuvchi o'zining sog'lig'i, jismoniy imkoniyatlari va manfaatlaridan kelib chiqishi lozim. Har kuni turli ommaviy axborot vositalari orqali bizga jismoniy faoliyatni amalga oshirish uchun turli-xil sport turlarini taqdim etishadi.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlari, shuningdek, o'qituvchi-tashkilotchi faoliyatidagi siyosiy-ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu masalalar bugungi kungacha yetarlicha o'rganilmagan. Yashash joyidagi maxallalarda bolalar va o'smirlar bilan tashkiliy va tarbiyaviy ishlarning birligi muammosi yaxshi ishlab chiqilmagan va uni hal qilish bo'yicha amaliy tajriba hali umumlashtirilmagan, bu esa ushbu ishni optimallashtirish va dolzarb vazifalarni hal qilishga to'sqinlik qiladi. Ommaviy jismoniy madaniyat harakati oldida turgan vazifalardan biri xisoblanadi.

Yoshlar yetakchilari va boshqa mas'ullarning zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning turlarini bilishlari, tinglovchi shaxsi va uning xususiyatini hisobga olgan holda ta'limda individuallik va differensial yondoshuvga erishuvlari va ta'lim jarayonlarida muammoli ta'lim, hamkorlik texnologiyasi va interfaol usullarini amalda qo'llay olishlari, axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-201-son qarorida yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga keng jalb qilish, mahallalarda ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularga uslubiy ko'maklashish va musobaqalar samaradorligini baholash reyting tizimini joriy qilish, yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosini va har yili ikki mavsumda ommaviy sport musobaqalari o'tkazilishini ta'minlash hamda barcha bosqich natijalarini tahlil qilsin va tizimli monitoringini olib borish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Qolaversa mazkur qarorga ko'ra ommaviy sport musobaqalari tashkil qilinadigan olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari ro'yxatini ham tasdiqlandi. Bu esa o'z navbatida respublikamizda ommaviy sport turlari hisoblangan noolimpiya va milliy sport turlarining rivojlanishiga, bu sport turi bilan shug'ullanayotganlar soni va ko'lamining oshishiga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-201-son qarorida O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan «Yoshlar forumi» doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etilishi belgilab berildi. Unga ko'ra,

birinchi bosqichda — ko'chalararo mahalla musobaqalari;
ikkinchi bosqichda — mahallalararo sektor musobaqalari;
uchinchi bosqichda — sektor musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari;

to'rtinchi bosqichda — tuman (shahar) musobaqalari g'olib mahalla jamoalari o'rtasida viloyat musobaqalari;

beshinchi bosqichda — viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida respublika (final) musobaqalari o'tkaziladi.

Shuningdek mazkur qarorga ko'ra 2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy qilinadi: Bunda,

birinchi bosqichda — tuman (shahar) musobaqalari;

ikkinchi bosqichda — viloyat musobaqalari;

uchinchi bosqichda — respublika (final) musobaqalari.

Bunda, ommaviy sport musobaqalari mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik, madaniyat va san'at, intellektual o'yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo'yicha tashkil etilayotgan besh bosqichli «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida o'tkazilishi ko'rsatib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi —Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi O'RQ-394-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi —Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3031-sonli qarori.

3. G'ulomov Z.T., Nabiullin R.X., Kamilova G.Z.. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2015, 292 bet.

4. Abdullayev F.T.Ommaviy jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish [Mant]: o'quv qo'llanma / F.T. Abdullayev – Toshkent: —Umid Designl, 2021. – 124 b.

5. Abdullayev F.T., Amanov A.N., Djurayev U. Ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish [Matn]: uslubiy qo'llanma / F.Abdullayev, A.Amanov, U.DJurayev.- T.:, 2022. -110 b.